

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 36 006,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 4,5 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 110,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,7 % ga yetdi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.


Yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sish sur'ati va deflyator indeksi dinamikasi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

		<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
	I. YAHM	31 209,9	36 006,9	104,5
	shu jumladan:			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	29 888,3	34 401,0	104,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1 321,6	1 605,9	106,5
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	29 888,3	34 401,0	104,4
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	12 307,9	13 782,5	103,6
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	7 277,7	8 209,4	103,8
	sanoat	5 285,5	5 836,9	104,5
	qurilish	1 992,2	2 372,5	101,8
	Xizmatlar	10 302,7	12 409,1	105,8
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 947,4	2 392,4	109,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 535,6	1 820,0	112,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	6 819,7	8 196,7	103,4


**Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




Hudud iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 103,6 %, (YAHM tarkibidagi ulushi - 40,1 %), sanoat - 104,5 % (17,0 %), qurilish - 101,8 % (6,9 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 109,0 % (7,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa - 112,7 % (5,3 %) va boshqa xizmat tarmoqlari – 103,4 % (23,7 %) ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 10 482,7 ming so'mni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga 102,3 %ni tashkil etdi.

**Yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga
hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari**











**Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi
(Yalpi qo'shilgan qiymatga nisbatan % da)**



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,5 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YAHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 40,1 % ni, sanoat tarmogʻi 17,0 % ni, qurilish 6,9 % ni va xizmatlar sohasi 36,0 % ni tashkil qildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**


		2021- yil	2022- yil
	I. YAHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati	95,8	95,5
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4,2	4,5
	II. Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi	41,2	40,1
	Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda)	24,4	23,9
	sanoat	17,7	17,0
	qurilish	6,7	6,9
	Xizmatlar	34,4	36,0
	savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar	6,5	7,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,1	5,3
	boshqa xizmat tarmoqlari	22,8	23,7

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiqga nisbatan % da)

2021- yil



2022- yil




Yuqorida keltirilgan diagrammada sanoat sohasining YAHM tarkibidagi ulushi 2021- yildagi 17,7 % dan 2022- yilda 17,0 % ga va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligini ulushi 2021- yilda 41,2 % dan 2022- yilda 40,1 % ga kamayganligini ko'rish mumkin. Qurilish sohasini ulushi esa 6,7 % dan 2022- yilda 6,9 % ga oshdi.

Xizmatlar sohasining YAHM tarkibidagi ulushi esa 34,4 % dan 36,0 % ga ko‘paydi. Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning YAHM tarkibidagi ulushi 6,5 % ni (2021- yil yanvar-sentabr – 7,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 5,1 %ni (5,3 %), boshqa xizmat tarmoqlari – 22,8 %ni (23,7 %) tashkil etdi.


YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 68,7 %i kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to‘g‘ri keldi, bu ko‘rsatkich 2021- yil yanvar-sentabr oylarida 69,0 %ni tashkil qilgan.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida YAHM o‘shida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)




2022- yil yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2021- yil yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 110,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari qurilishda – 116,9 % va xizmatlar sohasida – 113,8 % qayd etildi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMda kichik biznesning ulushi
(YAQQga nisbatan %da)



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 68,7 % ni tashkil qildi. (2021- yilning yanvar-sentabrda – 69,0 %).

YAHMda kichik biznes ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan izohlanadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) - milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududda joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

Aholi jon boshiga (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAHM hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

Mahsulotlar uchun soliqlar - tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar va boshqalar kiradi.

Mahsulotlar uchun subsidiyalar - davlat budjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar).

Mahsulotlar uchun sof soliqlar mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

YAHM fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati) doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri YAHMni (real YAHM), joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri YAHMga nisbati orqali hisoblanadi.

YAHM deflyator indeksi - iqtisodiyotda narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal YAHMning (joriy narxlardagi hisobot davri YAHM) real YAHMga nisbati orqali hisoblanadi.